

**KASB-HUNAR MAKTABLARIDA UY TA'LIMIDA TAHSIL OLUVCHI O'QUVCHILARNI  
INGLIZ TILI FANIDAN O'QITISH METODIKASI**

*Farg'onan ICHSHUI kasb-hunar maktabi*

*Ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Muhammadjonov Asadbek Dilshodjon o'g'li**

**Annotasiya:** *Kasb-hunar maktablarida uy ta'limalda tahsil oluvchi o'quvchilarni ingliz tili fanidan o'qitish metodikasi xaqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy, innovatsiya, bo'sh o'zlashtiruvchi, o'yin, ta'limi, innovatsion ta'lim.*

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so'zlashma olishi barchaga ma'lum.

Chet til ta'limalda sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida chet tillarni o'r ganish/o'rgatish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Bunga «the younger the better / early is better» mazmunidagi tushunchaning keng tarqalganligi sabab bo'ldi.

Chet til, xususan, ingliz tilini kichik yoshdan o'r ganish va o'rgatish ham o'z tarixiga ega. Kichik yoshdan inliz tili o'r ganish va o'rgatish dastlab yuqori tabaqa 7 oilalarda tajriba qilingan bo'lsa (Anna-and-the-King-of-Siam), 1950 - yillarda AQSH va Yevropa mamlakatlarida ommaviy tus oldi va o'n yil ichida «Foreign Language in Elementary School» dasturi asosida ta'limal oluvchi o'quvchilar soni bir millionga yetdi. Fransiya, Shvetsiya va Gollandiyada esa 1950-yillar o'rtalarida «English without a book» dasturi asosida ingliz tili 3-sinfdan o'qitala boshlandi.

2013 - yil Moskva (Rossiya)da «Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti: an'analar va innovatsiyalar» mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiyamaliy konferensiyada ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili o'qitish metodikasining dolzarb muammolari muhokama etildi.

O'zbek maktablari uchun dastur tayyorlashning o'z tarixi bor. 1968-yilga qadar o'zbek maktablarida Rossiya uchun mo'ljallangan dasturlarning mahalliylashtirilgan nuxalaridan foydalanib kelingan. O'zbek maktablari uchun dastur loyihasi 1968-yilda ishlab chiqilgan va 1970/71-o'quv yilida maktablarda joriy etilgan. 1999-yilda o'quv dastur yangilandi va uning asosida yangi darsliklar yaratildi.

Chet tilni barcha umumiyligi o'rta ta'limal maktabining 1-sinfidan boshlab ommaviy o'r ganish joriy etilishi munosabati bilan Yevropa Kengashining «Chet tilni egallashning umumyevropa kompetensiyalari: o'r ganish, o'qitish, baholash» to'g'risidagi xalqaro hujjat (CEFR)ning ayrim holatlarini nazarda tutgan holda Uzluksiz ta'limal tizimining chet tillar bo'yicha Davlat ta'limal standarti va O'quv dasturlari ishlab chiqildi va 2013–2014 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limdi ingliz tilini o'qitish metodikasi «(Inter)Cultural Awareness», «Language Awareness» va «Humanity» ta'lim konsepsiyalari asosida rivojlantirilmoqda.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limdi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiyligi o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligidagi ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzlusiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv-metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihatni, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning kichkintoylar yoshiga mutanosibligi ta'minlanadi. Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida o'rganishdan boshladilar.

Shubhasiz, mamlakatimiz ta'lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'qitishning ilg'or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanalarda bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatuvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o'zbekcha subtitr yordamida muntazam namoyish etish yoshamizga dunyo xalq-larining o'tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Ilmiy manbalarni o'rganib chiqib boshlang'ich ta'limdi xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O'quvchilarning ingliz tili o'rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish.
2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish.
3. Darslarda ma'noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish.
4. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanimish.
5. O'quvchilarning yoshiga mos autentik materiallardan foydalanish.
6. Nutq namunalari asosida ingliz tilio'rgatish.
7. Mavzularni obrazlashtirish (gapiruvchi qo'g'irchoqlar yordamida).

2021-2025 yil ichida ta'lim muassasalarida inkiyuziv ta'limni joriy qilish va rivojlantirish xaqida xukumat tomonidan qarorlar qabul qilindi. Bu esa albatta ta'lim muassasalardagi davomati va o'zlashtirishi past o'quvchilar uchun juda ko'p imkoniyatlarni, qulayliklar olib keladi.

Davomati va o'zlashtirishi past boshlang'ich o'rganuvchi o'quvchi guruhlarda, ayniqsa, dastlab o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, davomati va o'zlashtirishi past o'quvchilar birinchi bosqichlarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir.

Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar asosan rasmiy yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi?" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin jarayonida o'quvchilarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. O'quvchilarning so'z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdag'i o'yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'sh o'zlashtirishchi o'quvchilarga dastlab "Meva nomlari", "Kasblar", "Uy jihozlari" kabi mavzulardagi mashqlarni o'yinlar yordamida bajartirish mumkin. So'ngra ular kompyuterdagi rang-barang tasvirlarga uyg'un holatda ko'rsatilsa, o'quvchilarning nutqi rivojlanib, atrof-muhitga munosabat doirasi kengayadi. Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida ekranda so'zlar va uni aks ettiruvchi rasmlar paydo bo'ladi. O'quvchilar so'zlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsipiga e'tibor berish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Kompyuter u yoki bu qiyinchilikni mashqlar vositasida bartaraf etib, o'quvchining ingliz tilidan o'zlashtirishga qiynalayotgan jihatlarini topishga va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Ikkinci bosqichdan boshlab grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, "Kim savodxon?", "Kim zukko?", "Men kimman?", "Zanjir", "Rolli o'yin", "So'z o'rnini top kabi qiziqarli o'yinlar shular jumlasidandir. "Kim zukko?" o'yini imlo savodxonlikni oshirishda yaxshi natija beradi. Bunda karton qog'ozga 5-6 ta so'z yozilgan bo'lib, so'zlar to'g'ri va noto'g'ri yozilgan bo'ladi. O'quvchilardan noto'g'ri yozilgan so'zni topib, to'g'ri yozib berish talab qilinadi. Qaysi o'quvchi noto'g'ri yozilgan so'zlarni to'g'ri va birinchi bo'lib yozib berishga qarab o'yin g'olib aniqlanadi.

Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz

tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda:

"Quvnoq topishmoqlar" (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish. Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rghanadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar. "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi. "Chigil yozdi" (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish. "Pantomima" (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi. "Hikoya zanjiri" (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi. "Rolli o'yinlar" (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin "Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning o'g'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim. "Kviz kartochkalari" (Quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtida darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqt ni tejaydi.

"So'z o'rnini top" o'yinida so'zlarning o'rni almashtirib qo'yiladi hamda so'zlarni o'z o'rniga to'g'ri qo'yish orqali gap hosil qilinadi. "To'plam" o'yini ma'lum bir mavzu asosida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'yin qatorlar musobaqasi yoki kichik guruhlarda ishlash shaklida tashkil etiladi. Masalan, belgini bildirgan so'zlarni toping deb, guruhlarga topshiriq beriladi. Berilgan vaqt ichida qaysi guruh ko'p topa olsa g'olib bo'ladi. Multfilmlar. O'quvchilarlar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. O'quvchilar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar orqali o'rgatib kelinmoqda.

"Rasmli" o'yin. O'quvchilar Present Continous tarkibini yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun rasmi o'yinni qo'llash mumkin. O'quvchilarga hali ko'rmagan rasmlaridagi personaj nima qilayotganini topish taklif etiladi. Masalan, P1: Is the girl sitting at the table? P 2 : No, she is not.

P1: Is the girl standing? P 2:: Yes, she is

Rasmda ifodalangan harakatni to'g'ri topgan o'quvchi g'olib xisoblanadi. U boshlovchi bo'lib boshqa rasmni oladi.

"Rasmdagi gaplar" o'yini. Bu o'yin grammatik formalarni mashq qildirish uchun yaxshi ko'rgazmali vosita hisoblanadi. Kartalarda odamni qandaydir harakatlarini ifodalovchi bir necha rasmlar bor, masalan: konkida uchayotgan, shaxmat o'ynayotgan, kitob o'qiyotgan rasmlar bor. O'qituvchi rasmi kartalarni ko'rsatadi (bola konkida uchayapti) va so'raydi: What is he doing? O'quvchilar o'zlarida xuddi shunday rasmni topadilar va javob beradilar: He is skating.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, zamonaviy davrda ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ualarga kreativ yondashish, o'qituvchi motivator bo'lish, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, o'quvchilar ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktika (anamal o'quvchilar uchun) ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning dars o'tish metodikalarini ishlab chiqish muaomuning amaliy yechimini ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
2. Дронов В.П., Копылова В.В. Учебно-методическое обеспечение сегодня – переход к новым формам. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: ТЕЗАУРУС, 2013. – С. 211-212.
3. Iriskulov A.T va boshqalar Kids' English pupil's book 2sinf –Toshkent –O'zbekiston;2014
4. Tadjiboyev G.Sh. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish – N.:, 2019. 7,75 b.
5. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
- 6..Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
7. Горовик, А. А., Турсунов, Х. Х. (2021) Применение средств визуалной разработки программ для обучения детей программированию на примере scratch. UNIVERSUM, 8(77), 27-30.
- 8.Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
- 9.Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
- 10.[https://kopilkaurokov.ru/angliiskiyYazik/uroki/boshlangich\\_sinfarda\\_engliz\\_tilini\\_oqitishda\\_zamonaviy\\_yondashuvlar\\_va\\_innovats](https://kopilkaurokov.ru/angliiskiyYazik/uroki/boshlangich_sinfarda_engliz_tilini_oqitishda_zamonaviy_yondashuvlar_va_innovats)
- 11.<http://e-library.namdu.uz/74%20Педагогика%20файлар/Ukuv%20qullanma. Pdf>